

MAGISTRATURA TALABALARINING KOMRETEENTLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA VOSITALARI

Ganiyeva Gulrux Valijon qizi,
redagogika fanlari bo'yisha falsafa doktori RhD, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.016>

Annotatsiya. Maqolada magistr malakasini tashxislashning rsixologik jihatlari ko'rib shiqiladi. Magistrlar tomonidan uslubiy fikrlash asoslarini o'zlashtirishni ta'minlash keyingi ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatning muvaffaqiyati ushun zarur shartdir. Magistr malakasini tashxislash murakkab jarayon hisoblanadi. Ko'rib turganimizdek, bu erda ham redagogik, ham rsixologik tarkibiy qismlarni hisobga olish kerak. Shuning ushun hali ham universal, tayyor vositalar mavjud emas. Kompetensiyani o'lshashga urinishlar mavjud, ammo ular asosan BKMLarni (testlar, vazifalar, anketalar va boshqalar) o'lshashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: magistratura, kompetentlik, metod, ta'lim jarayoni, baholash mezonlari, zamonaviy usullari va vositalari.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ОЦЕНКИ КОМПЕТЕНЦИИ МАГИСТРАНТОВ

Ganieva Gulrukh Valijon kizi,
PhD доктор философии по педагогическим наукам, Международная исламская
академия Узбекистана,

Аннотация: в статье рассмотрены психологические аспекты диагностики компетенции магистра. Обеспечение усвоения магистрами основ методологического мышления является необходимой предпосылкой для успешности последующей научно-исследовательской и практической деятельности. Диагностика компетентности магистра считается сложным процессом. Как мы видим, здесь необходимо учитывать как педагогические, так и психологические составляющие. Поэтому до сих пор нет универсальных, готовых инструментов. Есть попытки измерить компетентность, но в основном они направлены на измерение ЗУНов (тесты, задачи, вопросы и т.д.).

Ключевые слова: магистратура, базовая компетенция, компетентность, метод, модуль, образовательный процесс, оценка.

MODERN METHODS AND TOOLS FOR ASSESSING THE COMPETENCE OF MASTER STUDENTS

Ganieva Gulrukh Valijon kizi,
PhD Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, International Islamic Academy of
Uzbekistan

Abstract: the article deals with the psychological aspects of diagnostics of the master's competence. Ensuring the mastery of the basics of methodological thinking by masters is a necessary prerequisite for the success of subsequent research and practical activities. Diagnosing a master's competence is considered a complex process. As we can see, it is necessary to take into account both pedagogical and psychological components. Therefore, there are still no universal, ready-made tools. There are attempts to measure competence, but mainly they are aimed at measuring ZUN (tests, tasks, questionnaires, etc.).

Key words: magistrate, basic competence, competence, method, module, educational process, assessment.

Kirish. Jahon ta'lim muassasalarida kompetentlikka bog'liq yondashuv asosida magistratura mutaxassisligi talabasining bilim, ko'nikmalar, ta'lim faoliyati hamda zaruriy kasbiy shaxsiy sifatlarini baholashning 5 baholi, 100 ballik texnologiyalari amaliyotga tadbiq etilmoqda. Bu esa o'z o'rnila bilimlarni baholashdan kompetensiyalarni baholashga o'tish bilan bog'liq

tadqiqotlarda “statik baholashdan rivojlanishga qaratilgan dinamik baholashga o‘tish, hamda, boshqa tomondan, magistratura mutaxassisligi talabasining ilmiy-ta’lim faoliyatlarini va kasbiy tajribasini baholash usullariga ehtiyoj darajasi magistratura ixtisosliklarida kasbiy tayyorgarlik darajasini rivojlantirish” bo‘yisha amaliy ishlarni tizimli tatbiq etish bo‘yisha faoliyat olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Gumanitar sohasi magistratura mutaxassisligi talabalarining kompetentligini baholash mezonlari va bosqishlarini aniqlashdan oldin kompetentlik(kompetensiya) tushunshasiga qisqasha to‘xtalib o‘tamiz.

Ilmiy-redagogik adabiyotlar tahlil qilinganda, shuni ko‘rish mumkinki, “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunshalarini talqin qilishda ikki yondashuv mavjud bo‘lib: birinshisida ular bir ma’noni bildiradi, ikkinshisida - turli. Aksariyat hollarda kompetensiya va kompetentlik tushunshalari bir xil ma’noda ishlatiladi: kompetentlik(kompetensiya) ma’lum bir sohaga aloqador bo‘lmagan holda, bilimlarni kasbiy faoliyatda samarali qo‘llay olishi.

Bugungi kunda, kompetentlik (kompetensiya) tuzilmasi va mazmuni bo‘yisha ko‘rlab ilmiy ishlar bor bo‘lishiga qaramasdan, kompetentlik yondashuv bo‘yisha yagona va aniq fikrga kelinmagan. Ya’ni, kompetentlik(kompetensiya) tuzilishi, shakllanishi, baholash vositalari, rivojlantirish mexanizmlari kabi savollarga javoblar mavjud emas.

Ushbu muammo bo‘yicha xorijiy olimlar Dj. Raven, N.Xomskiy,

R.Uayt va boshq., MDH davlatlari olimlari V.I. Baydenko, I.A. Zimnyaya, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, A.I. Sybbeto, Yu.G. Tatyr, A.V. Xytorskoy va boshq., hamda pedagog olimlarimiz R.X. Djuraev, A.X. Maxmudov, N.A. Muslimov, M.B. Urazova va boshqalarning ilmiy ishlarini keltirish mumkin.

Jumladan A.V.Xutorskoy kompetensiyalarni quyidagi guruhlarga bo‘lgan:

tayanch (barcha fanlar tarkibi uchun umumiyl bo‘lgan metafanlarga asoslanadi);

umumfanlar doirasida (fanlarning to‘plami, ta’lim sohasi uchun integrasiyalashgan mazmun bo‘yicha amalga oshiriladi);

fan doirasida (alohida fanlar negizida shakllantiriladi).

I.A.Zimnyaya 10 ta tayanch kompetensiyalarni uchta katta guruhga birlashtiradi. Bundan tashqari kompetensiyalarni yana qator tasniiflar mavjud, ammo ularning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning barchasi u yoki bu shaklda ikkita guruhnini o‘z ichiga oladi: tayanch va maxsus (1-rasm). Tayanch kompetensiyalarning ta’rifi va mazmuni turlicha talqin qilinadi va turli elementlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Yevropa universitetlarning assotsatsiyasi taklif qilgan tayanch kompetensiyalarni tarkibiga instrumental, shaxslararo va tizimli kompetensiyalar kiradi. Rossiya olimlari tomonidan taklif qilingan tayanch kompetensiyalarni tarkibini: qadriyatli-semantic, umummadaniy, ta’limiy, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy mehnat va shaxsnинг o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalari tashkil qiladi.

I.A.Zimnyaya va boshqa olimlar kompetensiyani o‘lchash o‘ta murakkab vazifa ekanligini e’tirof etishgan. Shakllangan kompetensiyani o‘lchash uchun, an’anaviy baholash vositalardan farqliroq baholash instrumentlarini, baholash o‘lchovlarini va mezonlarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

1-rasm

Ta’lim jarayonining nazorat va baholash magistr shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, mas’uliyat, fidoyilik, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z-o‘zini tashkil qilish, o‘zini tuta bilish kabi professional sifatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi:

Magistratura ta’lim tizimida nazoratning ikkita asosiy turini ajratish mumkin: kognitiv va kompetentli.

Kognitiv nazorat o‘quv jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashda magistratura talabalarining ilmiy-kognitiv faoliyati samaradorligini aniqlashga qaratilgan va respublika olyi o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonida keng qo‘llaniladi.

Dissertasiyada asosiy e’tibor kompetentli nazoratga qaratilgan bo‘lsada kognitiv nazorat ta’lim sifatini ajralmas qismi bo‘lgan uchun unga xam to‘xtalib o‘tganimiz.

Kognitiv nazoratning asosiy maqsadi - magistratura talabalarining o‘quv jarayonida

bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha izchil va tizimli ishlarini faollashtirish va rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi. Buning uchun quyidagi metodologik mezonlarga bog‘liq modul-kredit tizimi qo‘llaniladi:

o‘quv yili uchun ta’lim dasturining tuzilishi bir yoki bir nechta modullarni tashkil etgan ta’lim elementlaridan iborat bo‘lib, oliv ta’lim muassasasi ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ta’lim dasturi auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim, ilmiy loyihalar, ishlab chiqarish amaliyoti va boshqa ta’lim elementlaridan tashkil topgan bo‘lishi mumkin;

talabalarning ta’lim dasturini mukammal o‘zlashtirishi, hamda talab etilgan malakaga ega bo‘lishi mobaynida talablar aniq belgilanadi. O‘zlashtirish qoidalari tanlangan ta’lim dasturi orqali o‘qitishning turli xil bosqichlarida belgilangan kreditlar oralig‘ida yoki kreditlar miqdorida ifodalanishi mumkin.

o‘quv jarayoni nazorat va o‘quv tadbirlari majmuini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘quv tadbirlarida hamma turdagи auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ishlar va amaliyotning tashkil qilinishi e’tiborga olinadi. Nazorat tadbirlari ta’lim oluvchi talabalarning o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirishini va ularning natijalarini baholash e’tiborga olinadi;

ta’lim dasturining tuzilishi uning har bir ta’lim elementiga mos tushadigan ta’lim olish natijalari (kamida 6 ta ko‘rsatkich)ni ko‘rsatgan holda bir akademik o‘quv yiliga 60 kredit mos kelishini hisobga olib ishlab chiqiladi. Ta’lim dasturida kreditlarning miqdori o‘quv yuklamasi asosida ko‘rsatiladi;

kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25 — 30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya’ni talaba ma’lum bir fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi magistraturada - 30% - 40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo‘linadi;

semestr davomida talabalar tomonidan to‘planishi kerak bo‘lgan kreditlar miqdori o‘quv rejasida ko‘rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o‘z ichiga oladi. Majburiy fanlar tarkibi va ularni o‘rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori tayanch oliv ta’lim myassasasi tomonidan belgilanadi. Tanlov fanlari tarkibi va ularni o‘rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori oliv ta’lim myassasasi tomonidan mustaqil belgilanadi. Magistratura talabalarini shaxsiy ta’lim traektoriyasida belgilangan tanlov fanlari doirasida fanlarni mustaqil tanlashi mumkin.

Magistratura mytaxassisliklarida magistr talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o‘quv yilida 60 kredit to‘plashi belgilanadi. Semestr davomida magistratura talabasi tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan kreditlar hajmi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o‘z ichiga oladi. Magistratura talabasi o‘zining shaxsiy ta’lim traektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o‘zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o‘quv rejasidagi majburiy fanlar bo‘lishi shart.

NATIJALAR

Magistratura talabalarining kompetensiyalari baholash yuqorida keltirilgan indikatorlar va quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir: boshlang‘ich, oraliq va yakuniy.

Boshlang‘ich diagnostika (BD) magistratura talabalarining bakalavriat yo‘nalishida shakllangan kompetensiyalarni baholashga qaratilgan bo‘lib bunda test, og‘zaki yoki yozma ish vositalardan foydalanish mumkin.

Oraliq diagnostika (OD) magistratura talabalarining magistratura o‘qish jarayonida shakllangan kompetensiyalarni baholashga qaratilgan bo‘lib bunda test, vaziyatli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Oraliq nazoratda magistratura talabalarining o‘quv, tadqiqot, hamda ijodiy faoliyati davomida kompetensiya darajasini rivojlantirish kuchini aniqlashga imkon beradi.

Yakuniy diagnostikasi magistraturaning oxirgi bosqichida amalga oshiriladi. Bunda magistratura talabalarida o‘qish davrida rivojlangan kompetensiyalarni baholashga qaratilgan. Bunda vaziyatli topshiriqlar qo‘llaniladi.

Barcha turdagи kompetensiya nazoratini amalga oshirishning asosiy usuli - magistraturada o‘qitishning har bir bosqichida olingan kompetensiyalarning darajasini diagnostika qilish

(aniqlash) hisoblanadi.

Pedagogik diagnostika mazmuni va ularni amalga oshirish vositalarining xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Boshlang'ich kompetensiya nazorati boshlang'ich diagnostika yordamida amalga oshiriladi, bu jarayonda har bir talabaga boshlang'ich darajadagi vaziyatlari masalalarini hal etish taklif etiladi. Ushbu vaziyatlari masalalar magistratura talabalaridan tegishli mutaxassislik bo'yicha kasbiy-amaliy masalalarini hal etish bo'yicha bilim, ko'nikma, ko'nikma va tajriba talab qiladi. Shunday qilib, ilk tahlil talabalarning bakalavr darajasida olingen kasbiy va ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tadqiqot va uslubiy bilimlar orqali integrasiyalashgan xarakteridagi professional amaliy vazifalarni hal qilish tajribalari va ko'nikmalarini aniqlashga imkon beradi. Vaziyatlari vazifalarni yechish asosida muvaffaqiyatini baholash har bir magistr talaba uchun magistraturada o'qishni boshlashdan oldin ma'lum bir kompetensiyalarning rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi. Boshlang'ich diagnostika natijalari har bir magistr talabasi uchun o'quv dasturini individual ravishda shakllantirish imkonini beradi.

Oraliq diagnostikada har bir magistrant turli myrakkabdagisi vaziyatlari topshiriqlarni echish kerak. Ularni hal etish uchun 1-darajali vaziyatlari topshiriqlar Magistr talabalardan bilim, ko'nikma va malaka integrasiyasini va ta'limning

1-mavzusida o'rjanilgan barcha o'quv fanlari bo'yicha vazifalarni hal etishni talab qiladi. 2-darajali vaziyatlari vazifalarni hal etish uchun magistrantdan bir nechta mavzuga tegishli bilim va ko'nikmalar "talab qilinadi". 3-darajali vaziyatlari topshiriqlar ham integrativ xususiyatga ega, chunki ularni hal etish uchun magistrant modul davomida to'plangan integrativ bilim, ko'nikma, malaka va tajribalardan foydalanishlari kerak.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, vaziyatlari topshiriqlarning murakkabligi har bir topshiriqdan topshiriqqa qarab oshadi. Natijada, 3-darajali vaziyatlari topshiriqlarni muvaffaqiyatli hal etish magistraturada o'qish davomida rivojlangan kompetensiyalarni darajasini aniqlash imkonini beradi.

Yakuniy nazorat magistratura davomida olingen kompetensiyalarni darajasini aniqlash imkonini beradi. Bitiruvchilarning "Psixologiya" mutaxassisligiga oid uslubiy, kasbiy, ilmiy va ijtimoiy-huquqiy tayyorlarlikdan o'tganligini va o'z professional sohasidagi muhim va istiqbolli vazifalarni mukammal hal qilishga tayyorligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Kompetensiyalarni rivojlanish darajasini miqdoriy baholash quyidagi qoidalarga asoslanadi:

har bir magistrant vaziyatlari topshiriqlar majmuasini hal etishda kompetensiyalarini namoyish etishidan iborat bo'lgan faollilik yondashuvi qo'llaniladi;

har bir to'plamda vaziyatlari topshiriqlar soni 3 ta vazifaga teng;

topshiriqlarni baholash uchun 100 balli reyting shkalasi qo'laniladi;

vaziyatlari topshiriqlar murakkabligi va qiyinchiliklari tuzilishi intellektyal faoliyatning psixologik jihatlarini hisobga olgan holda shakllantirilladi;

agar vaziyatlari vazifalarni hal etishda magistratura talabasi 60 balldan yuqori natijaga erishsa (O'zbekistonda umumiy qabul qilingan kredit-modulli tizimga muvofiq) ko'rsatiladigan kompetensiya darajasi me'yoriy hisoblanadi.

Vaziyatlari vazifalar to'plami har xil darajadagi 3 ta topshiriqdan iborat. Har bir to'plamda (kirish, oraliq va yakuniy diagnostikasi uchun) yengil topshiriq mavjud bo'lib, uning yechimi magistrantga qiyinchilik tug'dirmasligi kerak. O'rtacha murakkablikdagi topshiriqlarning mavjudligi yechimni faollashtirishga yordam beradi va magistrantning taklif qilingan topshiriqlarni belgilangan vaqt ichida hal etishiga ishonchini oshiradi. Murakkab topshiriqlarni yechish sifati, har bir magistrantda kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajasiga baho berish imkonini beradi.

XULOSA

Shuni aytish mumkinki, funksional nuqtai nazardan, oraliq tahliliy ta'lim, tarbiya, hamda shakllanish vazifalarini bajaradi, bu esa o'z navbatida bunday tahlilning bo'lg'usi magistratura talabalarini kompetensiyali tayyorlashda zarurligi va muhimligini ta'kidlaydi. Muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida oraliq diagnostikani amalga oshirish integrasiya, individuallik, iżchillik, asoslilik va amaliyotga qaratilganlikning didaktik tamoyillariga bog'liq vaziyatlari

vazifalar majmuasini yaratishni talab qiladi.

Tashkiliy jihatdan oraliq diagnostikani o'tkazish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: tayyorgarlik, amalga oshirish bosqichi, natijalarni tahlil qilish va chora tadbirlarni ishlab chiqish.

Tayyorgarlik bosqichida vaziyatli vazifalarni ishlab chiqish va shakllantirish.

Amalga oshirish bosqichi har bir talaba tomonidan normativ vaqt (2,0 – 2,5 astronomik soat) davomida ularni hal etish uchun vaziyatli vazifalar to'plamini taqdim etishdan iborat.

Bo'lajak magistrning kompetentlik darajasini yakuniy baholash vaziyatli vazifalar majmuasini hal etish natijalari asosida kredit-modul tizimiga (60 balldan kam qoniqarsiz, 60-69 – qoniqarli, 70-89 – o'rtacha va 90-100 ball yuqori) muvofiq amalga oshiriladi. Vaziyatli vazifalarni hal etishda 60 balldan kam to'plagan Magistr talabalar oraliq diagnostikadan o'tmagan deb hisoblanadi, ular uchun maslaxatlar tashkil etiladi, shundan so'ng ularga oraliq diagnostikani qayta topshirishga ruxsat etiladi.

Foydalanilgan manbaalar:

Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son qarori. 2017 yil 20 aprel.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son qarori. 2018 yil 5 iyun.

Ganieva G. V. Kompetentlik yondashuv asosida magistratura talabalarning ta'lim natijalarini baholashning nazariy-metodik muammolari // TDRU ilmiy axborotlari. - T., 2022. – 8-son. – B. 468-474. (13.00.00 №32)

Ganieva G.V. Gumanitar mutaxassislik magistratura talabalarining komretentligini baholash mezonlari va bosqishlari // TDRU ilmiy axborotlari. - T., 2022. – 9-son. – B. 297-302. (13.00.00 №32)

Ganiyeva G.V. Modern tools for control and evaluation of achievements of educational standards // Science and Innovation. International scientific journal volume issue 8. UIF-2022:8.2 ISSN: 2181-3337. R. 2298-2303.

Майоров, А.Н. Теория и практика создания тестов для системы образования: Как выбирать, создавать и использовать тесты для целей образования / А.Н. Майоров - М.: Народное образование, 2000. - 352 с.

Savrasova, A.I. Otseňka obrazovatelnyx rezul'tatov v uslovijax modernizatsii obrazovaniya. : ucheb.-metod. posobie / Feder. agentstvo po obrazovaniyu, Murm. gos. ped. un-t ; A. I. Savrasova. - Murmansk: MGPU, 2008. - 168 s.